



TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

SARIMSOQOVA Gulnoza Abdiraximovna

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
magistranti*

AHMADJON IBROHIM O‘QOY – O‘ZBEK MA‘DANSHUNOS OLIMI

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi va Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi hukumatlari kelajakni o‘ylab 1922–1923- yillarda iqtidorli yoshlarni mahalliy millatlarning vakillari orasidan tanlab, Turkiya, Yaponiya, Germaniya singari mamlakatlarga o‘qishga jo‘natishgan. Ammo, 1924- yildan boshlab sovet hukumati yuqoridagi Respublikalarni tugatadi. Tugatilgan Respublikalar tomonidan o‘qishga yuborilgan talabalarni ortga qaytarish va ularning so‘ngida sobiq talabalarni “Vatan xoini” sifatida yo‘q qilish siyosatini yuritdi. Ushbu holatni bilgan Germaniyada qolib ketgan 14–16 nafar O‘zbekiston talabalari O‘zbekistonga qaytmay nemislar yurtidagi oliygohlarni bitirishadi va keyinchalik Turkiya Respublikasiga ko‘chib o‘tadilar. Germaniyadan Turkiya Respublikasiga ko‘chib o‘tgan o‘zbek ziyolilari 1926–1930- yillarda Turkiyaning bir qancha oliygohlarida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borib, turli fan sohalarida katta yutuqlarni qo‘lga kiritdilar.

Professor, fan doktorlari darajasiga erishgan Ibrohim, A. Yorqin, Tohir Chig‘atoy, Saidali Anqara, Majid O‘qoy, Ahmadjon Ibrohim O‘qoy, Saida O‘qoy singarilar Turkiyaning Istanbul va Anqara universitetlarida minerologiya, fizika, qishloq xo‘jaligi, tarix, sosiologiya, til, geografiya singari fanlardan talabalarga ta‘lim berdilar, o‘nlab ilmiy asarlar yaratdilar [7, B.94].

Ularning tadqiqot ob‘yeksi uchun ota-bobolar yurti: “Turkiston masalasi” bo‘ldi, desak adashmaymiz. Ulardan Ibrohim Yorqin “Kivirjak” zotidagi qo‘chqorlar turini yaratdi. U iqtisod, falsafa va sosiologiya sohalarida ham asarlar yozdi. 1939–1948- yillarda Ibrohim Yorqin Turkiya Respublikasi qishloq xo‘jalik vazirligida faoliyat yuritdi. Tohir Chig‘atoy esa “Qizil imperializm” nomli yetti kitobdan iborat bo‘lgan “Turkiston bibliografiyasi”ni tuzdi. Amaliy kimyo sohasida esa Majid O‘qoy bir qator kashfiyotlar qildi va oliy malakali o‘nlab mutaxassislar yetishtirishdi. Tohir Chig‘atoy esa 1931- yildayoq “Turkistonning yer osti boyliklari” nomli kitobini chop ettirgandi [2, 3, 5].

Yuqoridagi keltirilgan ma‘lumotlardan maqsad, Germaniyadan Turkiyaga borib, u yerda yashab qolgan sobiq talabalardan biri Ahmadjon Ibrohim O‘qoy haqida kengroq ma‘lumot berishdir. Ahmadjon Ibrohi o‘g‘li O‘zbekistonning poytaxti Toshkent shahrida 1900- yilning 10- oktyabrida dunyoga kelgan. Uning otasi Ibrohim Hoji Karimboyev konchilik fabrikasiga ega bo‘lgan savdogar edi. Onasi Ismatulloh qizi Sifatxonim hunarmand oilasidan chiqqan. Ahmadjon Ibrohim o‘g‘li ilk va o‘rta ma‘lumotni Toshkentda oldi.

Germaniyaga ketgunicha Ahmadjon Ibrohim boshlang‘ich maktabda 1907–1910- yillarda, 1910–1911- yillarda madrasada, 1911–1914- yillarda esa rus–tuzem maktabida o‘qigan. Bir guruh yoshlar bilan oliy ma‘lumot olish uchun 1922- yilda Berlin (Germaniya)ga jo‘natilgan edi. 1941- yilda Ahmadjon Ibrohim bu haqda o‘z qo‘li bilan yozgan “Tarjimai hol”ida: “Turkistondan Germaniyaga 74 talaba o‘qishga yuborildi. Germaniyaga yuborilgan talabalarning 56 tasi Buxoro jumhuriyatidan, 2 ta talaba Xiva jumhuriyatidan edi” [1],– deb yozgan. Germaniya poytaxti Berlinga Turkistonlik talabalar qatorida Ahmadjon Ibrohim ham yuksak orzu-umidlar bilan yetib keladi va nemis tilini ishtiyok bilan o‘rganadi.

Ahmadjon Ibrohim ko‘p o‘tmay Germaniya Oliy texnika maktabining 1- kursiga qabul qilindi. Berlin Oliy texnika maktabida 1926- yilda Ahmadjon Ibrohim bilan birga Abzal Abdusaid, Saidali Usmoniy, Bilol Fathulla, To‘lagan Mo‘min, Ataula Sadridin, Sulton Matqul, Sobir Ibrohim singari vatandoshlarimiz tahsil olishgandi [4, B.14].

1930- yilda Texnika dorilfununining ma'danchilik bo‘limida tahsil olgan Ahmadjon Ibrohim o‘qishni a'lo baholar bilan tamomlaydi. Ahmadjon Ibrohim ushbu maktabni tamomlagandan so‘ng, bir muncha vaqt ilmiy tadqiqot ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladi hamda germaniyalik do‘stlari bilan turkologiya, Turkiston tarixi va bolshevistik targ‘ibotning ushbu bu boradagi yolg‘onlari to‘g‘risida maqolalar bilan chiqadi. 1941- yil iyunida Ahmadjon Ibrohimov yozgan o‘z tarjimai holida ushbu hahda shunday deb yozadi:

“...Temurga oid bir asar yaratdim. Bu asar Leypsigda 1938- yilda chop etildi. Bundan keyin Afg‘onistondan qochib chiqqan turkistonliklar yordamida to‘plaganim materiallarimdan foydalanib, “Huquqsizlar” (“Dis Rashglosen”) nomli asarni yozdim. Bu asar ham bosilmadi” [1].

XX asrning 20- yillar oxiri – 30- yillarning boshlarida Germaniyadan o‘qib yurtiga qaytgan buxorolik va turkistonlik talabalar sovetlarning siyosiy ta’qibi va tazyiqlariga uchray boshlashadi. Buni eshitgan Ahmadjon Ibrohimov vatani O‘zbekistonga qaytmaydi. U Orifxon Ibrohim, Tohir Chig‘atoy, Saidali Usmon va boshqalar singari Germaniyada qolishga majbur bo‘ladi. Ahmadjon Ibrohimov keyinchalik ilmiy-tadqiqot ishini yozib, o‘zining sohasi bo‘yicha doktorlik unvoniga sazovor bo‘ladi. Ahmadjon Ibrohimov universitetda ishlashi bilan birga vatani Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli to‘g‘risida, uning Yevropa ilg‘or fani va texnikasini egallagan mahalliy kadrlarga muhtojligi to‘g‘risida maqolalar yozib chiqadi.

Berlinda “Turkiston talabalari uyushmasi” (keyinchalik “O‘rta Osiyo talabalari ittifoqi”) 1923- yilda tuzilib, uyushma a’zolari “Ko‘mak” nomli jurnalni nashr qildirdilar. Ahmadjon Ibrohim mazkur jurnalning 1- sonida “Texnika va biz” nomli maqola bilan chiqib: “Turkiston kabi ma’dan va o‘simliklarga boy o‘lkaning og‘ir ahvoli, unda hamon zamonaviy zavod va fabrikalarning kamligi, ularni boshqaruvchi oliy malakali milliy kadrlarning yetishmasligidir” [2],– singari o‘z davri uchun haqli bo‘lgan fikrlarni bayon qiladi.

Ahmadjon Ibrohim Turkiston va Germaniyada nashr etilgan gazeta va junrallaridagi maqolalarida Ona Vatanini iqtisodiy va madaniy qoloqlikdan qutqarish hamda uni taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo‘shish uchun Yevropa ilm-fani yutuqlarini egallashni targ‘ib qilgan. Masalan, u «Turkistonning kelgusi» (1922) deb nomlangan maqolasida bu to‘g‘risida shunday deb yozgan: «Boshqalar tomonidan ishlangan boyligimiz boshqalar foydasidir. Shirin umidga erishmoq uchun birgina iloj bor bo‘lsa, u ham bo‘lsa chetlar ilmini va fan ilmidagi mahoratni o‘rganib, o‘z madaniyatimiz, o‘z boyligimizni o‘zimizga ishlataylik. Buning uchun birinchi chora yevropaga o‘quvchilar yuborishimiz kerak. Mana bu narsani ilm atrofida yurgan yoshlardan tuzulgan “Ko‘mak” uyushmasi tushunib, jiddiy bir harakatga kirishdi.

Chetga boruvchi o‘quvchilarni ta’min qilish uchun smeta tuzib, hukumatga topshirdi. Qo‘shni jumhuriyatlardan ko‘mak so‘radi. Buxoro hukumati “Ko‘mak” a’zosidan ikki kishini chetda o‘qitmoqni o‘z ustiga oldi.

Buxoro hukumati uchun qulluq qilamiz, ishlaylik, millatlar vistavkasida yuzimiz qizarmasin. Qani, marhamat qiling, yosh o‘rtoqlar, chet ellardan ilm, fan o‘rganishga!” [4, B.187].

Ahmadjon Ibrohim geologiya sohasida olib borgan ilmiy izlanishlarining natijasida, 1933- yilda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlaydi. U Turkiya Respublikasiga 1934- yilda ko‘chib o‘tadi. O‘ziga esa turkcha “O‘qoy” degan familiya oladi. Chunki 1935- yilda Turkiya hukumati mazkur mamlakatda doimiy yashab qolgan va turk fuqaroligini olgan boshqa millat vakillarining hammasiga turkcha familiya olishni shart qo‘yuvchi qonunni qabul qilgandi.

“O‘qoy” – bu o‘q va yoy (oy) qo‘shilishidan iborat ma’noni bildirgan. 1934- yildayoq Istanbul dorilfununining “Fanlar fakulteti” qoshidagi “Geologiya instituti” Turkiyaga ko‘chib o‘tgan. Ahmadjon Ibrohim O‘qoy shu yilning o‘zidayoq ushbu institutda ish boshlaydi.

Mazkur ilm dargohida unga samarali mehnati sababli oldin dotsentlik, keyinchalik professorlik ilmiy unvonlari taqdim etiladi. Mazkur dargohda Ahmadjon Ibrohim talabalarga petrografiya, mineralogiya, ko'mir petrografiya, ma'dan konlari va umumiy geologiya mutaxassisliklari bo'yicha ma'ruzalar o'qidi hamda amaliy mashg'ulotlar o'tdi.

Ahadjon Ibrohim tarbiyalab yetishtirgan ma'dansunos olim, malakali mutaxassislar va ilmiy xodimlar uzoq yillar davomida Turkiya Respublikasining tog' - kon sanoati rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Ahmadjon Ibrohim O'qoy o'zbek tilidan tashqari fors-tojik, arab, rus, turk, nemis hamda ingliz tillarini ham puxta egallagandi. U o'zining geologiya va ma'dansunoslikka oid darslik va o'quv qo'llanmalarini hamda o'nlab ilmiy maqolalarini turk va nemis tillarida yozdi. Ahmadjon Ibrohim O'qoy siyosatshunoslik va turkologiya bilan ham shug'ullangan. U Anvar posho va Amir Temurga atab kitoblar yozgan. Ammo, biz mazkur kitoblar bilan haligacha tanish emasmiz. Germaniyadan Turkiyaga ko'chib kelganidan keyin ham Ahmadjon Ibrohimov Turkiya va Germaniyaning matbuotlarida erkparvarlik va istiqbolchilik ruhidagi maqolalarini e'lon qilishdan to'xtamadi.

Jumladan, u Berlinda Mustafo Cho'qayevning muharrirligida chop etilgan "Yosh Turkiston" hamda Anqara shahrida nashr etilgan "Turk madaniyati" jurnallarida bir qator maqolalarini chop ettirib, ularda Turkistondagi sovet istibdodi va undan qutulish choralari to'g'risida, yurt ozodligi, demokratik tuzum va shaxs erkinligi hamda boshqa muhim ijtimoiy masalalar to'g'risida fikr yuritdi. Ahmadjon Ibrohimov shunday maqolalaridan birini "Inson va hurriyat" (1962) deb nomlab, unda inson hurligi haqida shunday so'zlarni yozadi:

"Inson – hur bir shaxs egasi... Hurriyat odamning asl bir tamal toshidir. Hurriyat, o'z mohiyatiga ko'ra, qoidasizlik, qonunsizlik degan ma'noni bildirmaydi. Hurriyatda inson o'zining ichki bir maslakiy tuyg'u, qonuniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun inson o'zidagi asosiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarilishi uchun u hur bo'lishi kerakdir.

Olmon faylasufi Immanuel Kantning yozishicha, insonni zakovat va fikr yuritishlari kabi aqliy qobiliyatlari, jasorat, sabot kabi ustuvor xarakter xususiyatlari, hatto tole tomonidan ato qilingan iqtidor kabi fazilatlarini qam foydali ishlarga ishlatish uchun hur bir iroda egasi bo'lish kerakdir. Bunday bir hur irodaga ega bo'lmagan qar qanday qobiliyat ham odamlarga foyda keltirmay, aksincha, qo'rqinchli oqibatlarini keltirib chiqaradi. Insonning hur bir mavjudot ekanligi, uning ishlash imkonlari ko'pincha erkin bo'lgan bir tuzum sharoitidagina ro'yobga chiqishi mumkinligi bugun isbotlangan bir ilmiy nazariyadir. Shuning uchun odamga eng monand va foyda keltiruvchi idora shaklining ham demokratik bir tarzda bo'lmog'i kerakdir...

Ovro'po madaniyatining tamal toshlaridan bo'lgan antik madaniyat ham demokratik bir tuzum ichida maydonga kelgandir. Millatning idora usuli diktatorlik asosiga qurilgan bo'lsa, buning aksicha, madaniyat inqirozga yuz tutadi. Chorizm diktatorligi va uning o'rniga kelgan qora guruhchilarning istibdodi sharoitida butun imkoniyatlarini yo'qotgan ahvoldagi O'rta Osiyodagi turklardan chorizmning yiqilishi bilanoq qisqa bir vaqt ichida Cho'lponlar, Botular chiqdilar. U davrda Turkistonda bo'lgan diniy mutaassib tushunchalar hukmron bo'lgan vaqtlarda qisqa bir hurriyat vaqtida Cho'lponlarning chiqishi kishini hayratlantiradi. Demak, o'zligiga ega bo'lgan bir millat aslo yo'q bo'lib ketmas ekan. Faqat ne yoziqki, agar u yerlarda hurriyat bo'lganida, kim bilsin, u yerlarda handay zotlar, qay darajadagi madaniyatlar maydonga kelardi..." [6 B.24-25].

Germaniya va Turkiya matbuotida e'lon qilingan bunday maqolalari, undan tashqari Ahmadjoi Ibrohimovning vatani O'zbekistonda qolgan qarindosh-urug'lari bilan yozishmalari sobiq sovet maxfiy xizmat idoralarining e'tiborini tortib, qat'iy kuzatuvdan chetda qolmadi, provardida uning O'zbekistondagi avlodlari ham ta'qibga uchradilar. Bular to'g'risida faqat oshkoralik va mustaqillik davrlarida ochiq yozila boshladi. Dramaturg Abduqahhor Ibrohimov va marhum akademik Obid Akramxo'jayevning ayrim kitob va maqolalarida shu haqda ba'zi bir muhim ma'lumotlar uchraydi [4, B.189].

Ahmadjon Ibrohim O‘qoy 1986- yilda Istanbulda og‘ir bir kasallikka chalinib, 1991- yilda olamdan o‘tdi. Uni Istanbuldagi Aranko‘y qabristoniga dafn etishdi. Uning qabri ustiga xotira uchun lavha toshi ham o‘rnatilgan. Tadqiqotimizda biz Ahmadjon Ibrohim O‘qoyning oilasi va oilaviy hayoti haqida ham ma‘lumot berib o‘tishni joiz deb bildik. Ahmadjon Ibrohim O‘qoy hayotida ikki marta uylangan. Uning birinchi rafiqasi aslzoda nemis ayoli bo‘lib, uning ism-sharifi Sharlotta Stalter bo‘lgan. U bilan 1934–1939- yillarda birga yashagan. Sharlotta Stalter O‘qoy og‘ir kasallikdan vafot etadi. Shundan so‘ng Ahmadjon Ibrohim 10 yildan so‘ng, ya‘ni 1949- yilda Nevin Irdem (Nevin O‘qoy – faylasuf) ismli turk millati vakilasi bilan oila quradi. Ularning uch o‘g‘ili bo‘ladi. 1953- yilda O‘rol, 1954- yilda To‘g‘rul va kenja farzandlari 1955- yilda O‘g‘uzlar dunyoga kelishgan. O‘g‘illaridan To‘g‘rul shifokorlik, O‘g‘uz kimyo muhandisi kasbini egallashdi. Ular bu sohalarda samarali faoliyat olib borishyapti.

Ahmadjon Ibrohimning katta o‘g‘li O‘rol O‘qoy otasining izidan bordi. U ma‘danhunoslik bo‘yicha London (Buyuk Britaniya) dorilfununida tahsil oldi. O‘rol O‘qoy ma‘danhunoslik fanlari bo‘yicha Angliyaning Kembrij dorilfununida ilmiy daraja olgan. O‘rol 1980- yilda Turkiyaga qaytgan. U Anqaradagi ma‘danhunoslik-qidiruv idorasiga ishga kirgan. U hozirgi kunda Istanbul texnika dorilfununining ma‘danhunoslik muhandisligi kafedrasida professor lavozimida ishlamoqda. Otasi Ahmadjon Ibrohim O‘qoy kabi O‘rol O‘qoy ham ma‘danhunoslik sohasida ilm toliblariga ushbu sohadan tahsil berayapti va ilmiy tadqiqotlar olib borayapti.

Ushbu paragrafda umr bo‘yi Turkiyada yashagan va hayotini ma‘danhunoslik ilmining rivojiga bag‘ishlagan millatdoshimiz Ahmadjon Ibrohim O‘qoy haqidagi ma‘lumotlarni bayon qildik. Aslida, Ahmadjon Ibrohim kabilarning hayot yo‘li va faoliyat tarixi alohida kitob qilinishga arziydi. Mazkur ma‘danhunos olimning asarlarini o‘rganib, ular tufayli kerakli xulosalar chiqarish kabi vazifalarni bajarish esa kelajakdagi tadqiqotlar zimmasida.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Иброҳимов А. Тошкентнинг бир япроғи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993, 28 май.
2. Турдиев Ш. Олмонияда Туркистонлик талабалар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993, 16 апрель.
3. Турдиев Ш. Туркистон ташқарисидаги турклар библиографияси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1992, 7 август.
4. Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Т.: Фан, 1991.
5. Турдиев Ш.. Узбекистанские “невозвращенцы” // Звезда Востока, 1993, № 7.
6. Ўқой. Инсон ва хуррият // «Турк маданияти» журнали, 1962 йил, 2- сон.
7. Ҳайитов Ш. Собиров Н. Легай А. Хориждаги ўзбеклар. – Т.: Фан, 1992.